

YO‘LOVCHI TASHISH XIZMATLARINING ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI

Saidyusupov Ma'rufxon Bahodirxon o'g'li

NamMQI o'qituvchisi

Otabek Sidiqov Abdunosir o'g'li

NamMQI o'qituvchisi

Qayumov Nozimjon Karimjon o'g'li

Talaba NamMQI

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy foydalanishdagi avtobuslarda yo‘lovchi tashish xizmatlarining ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan harajatlar tarkibiga bevosita xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan, xizmat ko‘rsatishni tashkil etish bilan shartlangan hamda ularga yoqilg‘i, bevosita mehnat harajatlari, yagona ijtimoiy to‘lov, amortizatsiya, texnik xizmat ko‘rsatish, joriy ta‘mirlash, avtobus shinalarining eskirishi va ta‘mirlash harajati, moy materiallari va boshqa xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: yoqilg‘i xarajatlari, yillik bosib o‘tilgan masofa, amortizatsiya ajratmasi, razryad, ta‘rif koeffitsienti, moliyaviy imkoniyat, amortizatsiya ajratmasi, balans qiymati.

COSTS OF PRODUCING PASSENGER TRANSPORT SERVICES

Abstract: In this article, the costs included in the cost of production of passenger transportation services in public buses are directly related to the provision of services, conditioned by the organization of the service, and include fuel, direct labor costs, single information is given on the cost of social payment, depreciation, maintenance, current maintenance, wear and tear of bus tires, fuel, and other service costs.

Key words: fuel costs, annual mileage, depreciation allowance, discharge, definition coefficient, financial capability, depreciation allowance, book value.

Yoqilg‘i harajatlari, avtobusning turidan, yoqilg‘ining amaldagi narhi hamda sarf me‘yoridan kelib chiqib, transport vositasining yillik bosib o‘tgan masofasini inobatga olgan holda quyidagicha aniqlanadi:

$$Y_x = H_s * L_{jami} * P_y$$

Bu erda: Y_x – yillik yoqilg‘i harajati; H_s – yoqilg‘i sarflash me‘yori;

L_{jami} – yillik bosib o‘tish masofasi; P_y -yoqilg‘i narxi.

Bevosita mehnat harajatlariga haydovchilar va konduktorlarning ish haqi kiradi. Umumiy foydalanishdagi avtobuslarda yo‘lovchi tashish xizmatlari bilan band bo‘lgan tashuvchilarning

hodimlari oylik ish haqini hisoblashda razryad ta'rif koeffitsientlarini quyidagilar bo'yicha aniqlashi tavsiya etiladi.[1-4]

1-jadval

Avtobus haydovchilari	Razryad	Ta'rif koeffitsienti
Avtobusning uzunligi 5 metrgacha	2	1,053
Avtobusning uzunligi 5 metrdan 7,5 metrgacha	3	1,106
Avtobusning uzunligi 7,5 metrdan 9,5 metrgacha	4	1,158
Avtobusning uzunligi 9,5 metrdan 11 metrgacha yuqori	5	1,269
Avtobusning uzunligi 11 metrdan 15 metrgacha yuqori	6	1,384
Avtobusning uzunligi 15 metrdan yuqori	7	1,505

Mazkur razryadlar avtobus haydovchilar mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, muassasalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko'proqni tashkil etadigan tashkilotlar uchun majburiydir, boshqa tashkilotlar uchun tavsiyaviy hususiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" 2012 yil 11- yanvardagi 6-son qaroriga asosan mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona ta'rif setkasidan foydalanadigan ho'jalik hisobotidagi korxonalar va tashkilotlarga ularning moliyaviy imkoniyatlaridan va xo'jalik faoliyati natijalaridan kelib chiqqan holda, xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etish uchun asos sifatida Yagona ta'rif setkasining oshirilgan ta'rif koeffitsientlari belgilanishi mumkin.[5-7]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnatga haq to'lash yagona ta'rif setkasini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2019 yil 16 sentyabrdagi 775-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston avtomobil transporti agentligining "Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2019 yil 23 yanvardagi 3130-son qaroriga binoan razryad va ta'rif koeffitsientlari ishlab chiqilgan.

Xodimlarning ish haqi miqdori, amaldagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga binoan hisoblanadi va moddiy rag'batlantirish harajatlari bevosita mehnat harajatlari tarkibiga kiradi.

Ma'lumot o'rnida : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2021yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 30 dekabrda PQ-4938-son qaroriga binoan 2023 yil 1 maydan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oyiga 980 000 so'm etib belgilangan.

Haydovchilarning ish soati 2021 yil uchun ish vaqti me'yoring davomiyligi 5 kunlik ish haftasidan kelib chiqib, 2010 soat, 6 kunlik 40 soatli ish haftasidan kelib chiqib, 1995 soatni tashkil etadi.[8-10]

Haydovchilarning soni korxonadagi jami avtobuslarning yillik ish soatidan kelib chiqib aniqlanadi:

$$AV_{soat} = V_k * AV_s * AV_k * 365$$

Bu erda:

AV_{soat} - jami avtobuslarning yillik ish soati; V_k – avtobuslarning bir kunlik ish vaqti; AV_s - avtobuslarning jami soni; AV_k – avtobuslarning yo'nalishga chiqish koeffitsienti bo'lib, hisob-kitoblarni soddalashtirish maqsadida 0,8 koeffitsientni qo'llash tavsiya etiladi.

$$X_s = \frac{AV_{soat}}{V_m}$$

Bu erda : X_s – Haydovchilarning soni; V_m – yillik ish vaqti me'yoring davomiyligi.

Avtobus haydovchilarining ish haqi avtobuslarning o'lchami, razryad ta'rif koeffitsientlari va mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib, quyidagicha aniqlanadi:

$$M_x = X_s * R_k * M_m * 12$$

Bu erda : M_x – bevosita mehnat harajatlari; R_k – razryad ta'rif koeffitsienti;

M_m – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan ijtimoiy soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari bo'lib, byudjet tashkilotlari, "SOS" uyushmalari, ixtisoslashtirilgan tsexlar, korxonada ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilardan tashqarilarga 12 foiz stavka miqdori belgilangan. Ijtimoiy soliq quyidagicha hisoblanadi:

$$I_s = M_x * 12\%$$

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, kodeksda belgilangan hususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar, soliq solish maqsadida guruhlar bo‘yicha taqsimlanadi va ularni sotib olishga doir chiqimlar amortizatsiya ajratmalari orqali amortizatsiyaning cheklangan normalari bo‘yicha xarajatlar jumlasiga kiritiladi.[11-14]

Avtobus vositalariga cheklangan norma 20 foiz belgilangan bo‘lib, ushbu normadan ko‘p bo‘lmagan tarzda hisoblanadi. Hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, soliq solish maqsadida amortizatsiyani mazkur normadan pastroq normalar bo‘yich hisoblashga yo‘l qo‘yiladi. Amortizatsiya ajratmasi quyidagicha hisoblanadi:

$$A_a = Q_b * 20\%$$

Bu erda : A_a – amortizatsiya ajratmasi; Q_b – Avtobusning balans qiymati.

Umumiy foydalanishdagi avtobuslarda yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashuvchilarning avtobuslari bosib o‘tadigan masofadan kelib chiqib, shinalarga bo‘lgan harajat bujudga keladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$SH_x = \frac{L_{jami}}{N_{km}} * P_{sh} * D_{sh}$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shahar jamoat transportlari o‘zini o‘zini qoplamasligi davlat tomonidan mub‘sidiyalash tizimini joriy qilish kerakligini ko‘rsatadi. 1 km uchun yo‘nalishdagi harajatlarni va 1 kmgga to‘g‘ri keluvchi narxni yuqoridagi formulalardan foydalangan holda quyidagi jadvalga to‘ldirish mumkin bo‘ladi.[15-16]

2-jadval.

No T/R	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Namangan	<i>(avtobus rusumi ISUZU)</i>		
				Yo‘nalish №1	Yo‘nalish №9	Yo‘nalish №13
				3-kichik tuman- Taxtako‘prik	Axsikent- Chorsu	1-kichik tuman- Chorsu
1	Korxonadagi avtomobillar soni	dona	44	16	8	20

2	Ishga chikish koeffitsenti	%	1	1	1	1
3	Ishdagi avtomobillar soni	dona	84	16	8	20
4	Avtomobil balans kiymati	sum	9 196 000 000	1 254 000 000	1 254 000 000	1 254 000 000
5	Yo'nalish masofasi	km	39	12,8	13,0	12,8
6	Bir borib kelish katnov vakti	minut	21	136,0	121,3	121,3
7	Ish vakti	soat	2	14	13	14
8	Bir kunda bir avtobusda tashilgan yul. soni	yo'lovchi	2 571	826	783	963
9	Joriy ta'mirga bir kunlik xarajat	sum/kun	396 303	132 101,0	132 101,0	132 101,0
10	Bir avtobusni bir kunlik yokilgi xarajati	kub.metr	186	56,6	63,7	66,2
11	Bir kunlik yokilgi xarajati miqdori	sum	522 144	158 368,0	178 360,0	185 416,0
12	Bir kunda bir avtobusga ish xaki xarajati 12%li ajratma bilan birgalikda	sum	336 091	111 789,6	107 997,8	116 303,2
13	Kredit foiz xarajati (8% yillik)	sum	1 030 685	343 561,6	343 561,6	343 561,6
14	Bir avtobusni bir kunlik jami xarajati	sum	5 319 691,6	1 744 013,9	1 777 166,5	1 798 511,2
15	Jami material xarajatlar	sum	5 585 676,2	1 831 214,6	1 866 024,8	1 888 436,7
16	Jami Yo'nalish buyicha xarajat	sum	81 996 367	29 299 434,3	14 928 198,7	37 768 734,4

17	Jami Yo'nalish buyicha tashilgan yo'lovchi	yo'lovchi	38 734	13 210	6 261	19 264
18	Rentabellik darajasi	%	10	10	10	10
19	Jami xarajat	sum	90 196 004,2	32 229 377,7	16 421 018,6	41 545 607,9
20	Jami Daromad	sum	58 101 600	19 814 400	9 391 200	28 896 000
21	Amaldagi tarif	so'm	1 500	1500	1500	1500
22	Foyda yoki zarar	sum	-32 094 404,2	-12 414 977,7	-7 029 818,6	-12 649 607,9
23	Bir yilda ko'riladigan zarar miqdori	m.sum	-11 714 457 518,9	-4 531 466 874,7	-2 565 883 773,7	-4 617 106 870,5
	1 km uchun narx		2 170	12 465	11 278	10 979

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Открытое Акционерное Общество "Методические рекомендации по оптимизации светофорного регулирования и координации работы светофорных объектов" «Научно-исследовательский институт автомобильного транспорта» (ОАО «НИИАТ») Москва 2021
2. Mamirov U. X., Soliev X. M., Turg'unov Z. X. Namangan shahridagi markaziy ko'chalarda chorrahalarining o'tkazuvchanligini oshirish samaradorligi //Mexanika i texnologiya. – 2023. – T. 1. – №. 10. – S. 66-71.
3. Xabibulaevich M. U. B. et al. Tartibga solinadigan yo 'l tarmog 'ining ko 'cha segmentida aloqa tezligini baholash (Namangan shahri misolida) //Mexanika i texnologiya. – 2023. – T. 1. – №. 10. – S. 136-142.
4. Raximberdiyevich N. A. et al. FARG 'ONA HALQA YO 'LIDA I. KARIMOV VA KOSONSOY KO 'CHALARI BILAN KESISHGAN CHORRAHALARDAGI TIRBANDLIKNI OLDINI OLISH //Механика и технология. – 2022. – Т. 3. – №. 8. – С. 113-119.
5. Normirzaev A. R. Implementation of innovative ideas in digitization of the transport sector in Namangan region //Scienceweb academic papers collection. – 2021.
6. Mamirov U., Tuxtabaev M., Raxmonov B. Vajnost razvitiya proekta velodorojki v Namangane. //Estestvennonauchnyy jurnal «Tochnaya nauka». – Kemerovo, 2022. Выпуск 129, – S. 12-17. www.t-nauka.ru

7. To‘Xtaboev M. A., Mamirov U. X. Shaharda avtomobilda tashishda harakat muntazamligini oshirish (namangan shahri misolida) //Mexanika i texnologiya. – 2022. – №. Spesвыpusk 1. – S. 101-108.
8. To‘xtabaev M. A., Mamirov U. X., Turg‘unov Z. X. Jamoat transportida yo‘lovchi tashish samaradorligi //Mexanika i texnologiya. – 2022. – №. Spesвыpusk 2. – S. 62-67.
9. Mamirov U. X., Soliev X. M., Turg‘unov Z. X. Namangan shahrida transport oqimini oshirishda infratuzilmalarni loyihalash //Mexanika i texnologiya. – 2023. – T. 1. – №. 10. – S. 130-135.
10. Saidyusupov M. QUALITY ANALYSIS OF PASSENGER TRANSPORT VEHICLES //«МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». – 2023.
11. Bahodirxon o‘g S. M. Shahar Jamoat Transportidan Foydalanish Sifati Va Ishonchliligini Baholashda Xorijiy Tajriba //ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR. – 2022. – C. 255-258.
12. Bahodirxon o‘g S. M. Shahar Transport Tizimlarining Tahlili //ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR. – 2022. – C. 259-262.
13. Bahodirxon o‘g S. M. SHAHAR YO‘LOVCHI TRANSPORTI TRANSPORT XIZMATI SIFAT PARAMETRLARINI BAXOLASH //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 329-335.
14. Alijon o‘g‘li X. A. AVTOSERVIS KORXONALARINI HUDUDIY JOYLASHUVINI MODELLASHTIRISH NAZARIY ASPEKTLARI //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 426-432.
15. Marufkhon S. Foreign Experience of Assessing the Quality and Reliability of the Functioning of Urban Public Passenger Transport //Global Scientific Review. – 2022. – T. 7. – C. 9-13.
16. Marufkhon S. STATE OF URBAN TRANSPORT SYSTEMS AT THE PRESENT STAGE //Archive of Conferences. – 2022. – C. 14-19